**UMAROV B.M., EGAMBERDIYEVA F.U.,
MUROTMUSAYEV K.B., RUSTAMOVA B.A.**



# IJTIMOIY PSIXOLOGIYA

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ORIENTAL UNIVERSITETI**

**UMAROV B.M., EGAMBERDIYEVA F.U.,**
**MUROTMUSAYEV K.B., RUSTAMOVA B.A.**

# IJTIMOIY PSIXOLOGIYA

**Bakalavriatura ta'lim bosqichi "Pedagogika va psixologiya" yo'nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan**
**darslik**

**TOSHKENT – 2023**

**UO`K: 37.013**
**KBK: 74.00 ya7**
**E-19**

Umarov B.M. Egamberdiyeva F.U., Murotmusayev K.B., Rustamova B.A.: Ijtimoiy psixologiya: Darslik. – T: 2023 – 450 b.

Mazkur darslikda ijtimoiy psixologiya fanining maqsadi, predmeti va vazifalari, ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida shakllanishi, rivojlanish tarixi, ijtimoiy psixologiyaning nazariy manbalari, ijtimoiy psixologiyaning asosiy mavzulari, tadbiqiy va amaliy sohalari, asosiy metodlari, undagi shaxs, guruh, boshqaruv, muomala muammolari nazariy jihatdan yoritib berilgan. Shuningdek, o‘quv qo‘llanmada o‘qitish jarayonida ta’lim texnologiyalarini qo‘llash, o‘quv faoliyatini samarali olib borishda mustaqil ishlarni tashkil etish masalalari atroflicha keltirilgan.

Ushbu darslik hozirgi kunda psixologiyaning alohida sohasi sifatida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni to‘liq tushunish va unga adekvat munosabat o‘rnata olishga yordam berar ekan, ta’lim yo‘nalishlaridan akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarga va ayniqsa, pedagogika fakulteti talabalari, magistrantlari, doktorantlari, mustaqil izlanuvchilari, shuningdek, psixologiya fani o‘qituvchilari va qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

**Taqrizchilar:**

Shamsiyev U.B. - O‘zbekiston milliy universiteti“Ijtimoiy psixologiya” kafedrasi mudiri, psixologiya fanlari doktori prof.v.b.

Abdusamatov H. - “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti, psixologiya fanlari doktori

**Oriental universitetining 2023-yil 3 iyyul 12 son Ilmiy Kengashida nashr uchun tavsiya etilgan.**

**ISBN: 978-9943-9536-3-6**

“EFFEKT-D” nashriyoti, 2023
Umarov B.,Egamberdiyeva F., Murotmusayev K., Rustamova B. 2023

# K I R I SH

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida tayyorlanayotgan kadrlar oldiga qo‘yilayotgan eng muhim vazifalardan biri - malakali mutaxassislar sifatida o‘zligini, o‘z qobiliyatlarini, individualligini, shaxsiy fazilat hamda xislatlarini bilgan holda atrofidagilar mehnatini oqilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning barcha sohalarida iqtidorli kasb sohibi sifatida faoliyat ko‘rsatishdir. Qolaversa, yuksak informatsion-texnologiyalar asri bo‘lmish XXI asr inson omiliga e’tiborning kuchayishi bilan ham tavsiflanadi. Zero, o‘z ruhiy kechinmalarini boshqarish, yaqinlari bilan samimiy sog‘lom munosabatlarda bo‘lish istagi - oddiy fuqarolarda kun sayin ortib bormoqda. Bu borada e’tibor talab jihatlardan biri - bu muomala, o‘zaro ta’sir va o‘zligini o‘zgalarga namoyon eta olish qobiliyatidir.

Davrimiz insonni mustaqil fikrli shaxs sifatida har bir soniyada o‘ylashga, fikrlashga, mulohaza yuritib, o‘zi uchun xulosalar chiqarishga majbur etmoqda. Ya’ni, bu cheksiz olamda biz o‘zimizni o‘zgalarsiz, o‘z manfaatlarimizni o‘zgalar manfaatisiz tasavvur qila olmaganimiz uchun ham ijtimoiy-psixologiyani bilishga majburmiz. Zero, mustaqil davlatimizning siyosati inson manfaatini himoya qilish, uning uchun munosib turmush tarzini yaratish ekan, bu ishlarni amalga oshirish uchun bo‘lg‘usi mutaxassis, pedagog-o‘qituvchi, ziyoli ijtimoiy bog‘liq, qonunchilik asoslarini bilishi va undan maromida foydalanishi, turmush normalariga bo‘ysungan holda jamiyatda o‘zining munosib o‘rnini egallab, fuqarolik burchini ado etishga tayyor bo‘lishini lozim.

Shu o‘rinda inson ruhiyati qonuniyatlarini o‘rganuvchi psixologiya fanining o‘rni va roli benihoya kattadir. Yosh avlodni yangicha ta’lim standartlari asosida, jahon talablariga javob beruvchi mutaxassislar qilib tarbiyalash ishi oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan yoshlar uchun yangi darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, risolalar tayyorlashning yangicha uslublarini talab etmoqda.
rga ta’lim va tarbiyaning mazmuni, undagi psixologik qonuniyatlar, psixologik bilimlarning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati, pedagogik

p
s
i
x
o
l
o
g
i
y
a

talabalarni ijtimoiy faoliyatning pedagogik faoliyat, ta’lim va tarbiya, mehnat, pedagogik baholash psixologiyasi, pedagogik faoliyatni boshqarish kabi

Ma'lumki, har bir yosh davrining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limiy va tarbiyaviy ta'sir o'tkazish insonda o'z-o'zini anglashni vujudga keltiradi. Shaxsda o'z-o'zini anglash tuyg'usi qancha erta uyg'onsa, shaxsiy nuqtayi nazar, o'z xulqini his qilish, o'zining amaliy va jismoniy imkoniyatlarini baholash shunchalik tez paydo bo'ladi. Xuddi shu asnoda injiqlik, o'jarlik va qaysarlik kabi illatlarning tarkib topishiga ruhiy to'siq vujudga keladi.

Manbalarda ta'kidlanishicha, shaxslararo munosabatlardagi qarama-qarshilik, inqiroz rivojlanish qonunlariga loqayd qarashning oqibatidir. Inson psixikasidagi umidsizlik, ijtimoiy adolat uchun kurashish ruhining o'zgarishi - nazariya bilan turmush nomutanosibligining mahsulidir. Odamlarda e'tiqod, dunyoqarash, muomala, muloqot, mustaqil xulq-atvorni shakllantirish ko'proq yuqoridagi omillarga bog'liqdir. Kishilardagi tashabbuskorlik hamda to'siqlarni yengishga intilishning shakllanishida psixologik bilimlarning o'rni kattadir.

Umuman ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida jumladan, oila, tarbiya muassasalari, ishlab chiqarish korxonasi va jamoat tashkilotlarida psixologik ilmlardan foydalanish ta'lim va tarbiyada shaxslararo ijobiy munosabatlar o'rnatishning, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning garovidir.

Ta'limdagi yangilanish, asosan, "Davlat ta'lim standartlari"ni ishlab chiqishnigina amalga oshirmay, balki ta'lim jarayoni orqali o'quvchining o'z kelajagini yorqin tasavvur qila oladigan, bu borada o'z taqdiri va o'z shaxsiga ongli munosabatda bo'lib, turli faoliyatlarda o'z-o'zini rivojlantira oladigan erkin, faol va mustaqil shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi.

Mazkur darslikning ahamiyati shundaki, u mustaqil yurtimiz fuqarolari psixologiyasida ro'y berayotgan o'zgarishlar, ularning hayotga, umuminsoniy qadriyatlarga, kasb-kori, oilasi, o'z salomatligi va yaqinlariga bo'lgan munosabatlarida milliy mafkuramizning asosiy mazmun va mohiyatlari namoyon bo'layotganligi bilan uyg'un tarzda bayon etilganligidir. Zero, mustaqillik psixologiyasini ongi va shuurida aks ettirgan hamyurtlarimiz, birinchi navbatda, yosh avlod kundalik muomalasi va turmush tarzida o'sha millat va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi solih amallarga intilaveradi va sog'lom g'oyalarsiz yashay olmaydi. Zotan, mustaqil respublikamizning kelgusidagi rivoji, ravnaqi har tomonlama barkamol, o'ziga, boshqalarga, jamiyatga, tabiatga va mehnatga to'g'ri munosabatini bildira oladigan, mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, ijodkor va tadbirkor shaxsga bog'liqdir.

Ushbu darslik yoshlarga aynan ijtimoiy-psixologik bilim asoslarini bersa-da, umid qilamizki, ularni o'z atrofida ro'y berayotgan islohotlarga xolis baho berish, o'zi va o'zgalar ruhiyati sir-asrorlariga befarq bo'lmaslik, o'z layoqatlarini o'stirishning elementar vositalaridan boxabar bo'lishga yordam beradi. Chunki shaxs o'z qobiliyati, iqtidori, layoqati, tafakkuri, diqqati, xarakteri xususiyatlarini bilib, uni to'g'ri yo'naltira olsa, bu nafaqat shaxsning o'ziga, balki jamiyat uchun ham katta naf keltiradi.

Darslik ijtimoiy psixologiya asoslari bo'yicha muxtasar bilimlarni bergani bilan uning har bobi yakunida tavsiya etilgan topshiriqlar, mashqlar, testlar va mustaqil bajarish uchun berilgan mavzular talabalarni o'z ustida ishlashga o'rgatadi

va psixologiyaning boshqa masalalarini ham mustaqil o‘rganish va ruhiy hodisalarni tahlil qilishga yordam beradi.

Mualliflar har bir o‘quvchi kitobni mutolaa qilish jarayonida unda ko‘tarilgan muammolarga befarq qolmaydi, jahonda va mustaqil yurtimizda ro‘y berayotgan olamshumul voqealar mohiyatini anglashda va ularga nisbatan faol hayotiy mavqening shakllanishida ko‘makdosh bo‘ladi, deb umid qiladi.

**Mualliflar**

**MUNDARIJA**

**KIRISH**.................................................................................................. …… 4
**1-bob. Ijtimoiy psixologiyaning shakllanishi va rivojlanishi, ijtimoiy-psixologik g‘oyalarning shakllanish tarixi.............** …………………………………… 7
1.1. Ijtimoiy psixologiya shaxs va jamiyat munosabatlarini o‘rganuvchi fan sifatida.................................................................................................... 8
1.2. Ijtimoiy psixologiyaning asosiy vazifalari va o‘rganish obyektlari................15
1.3.Xorij va rus psixologiyasida ijtimoiy psixologiyaning predmeti haqidagi bahslar....................................................................................................... 19
1.4. Ijtimoiy psixologiyaning ilmiy fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi tarixi...................................................................................... ………24
1.5. Antik davr va Sharq mutafakkirlari ishlarida ijtimoiy-psixologik ta’limotlar................................................................ ...............................29
1.6. Ijtimoiy psixologiyaning uch nazariy manbasi...........................................39
**2-bob. Ijtimoiy psixologiyaning asosiy zamonaviy yo‘nalishlari**.......................................................................................45
2.1. Geshtaltpsixologiya yo‘nalishining ijtimoiy-psixologik qonuniyatlari......................................................................................46
**2.2. Bixeviorizm ta’limotining ijtimoiy-psixologik mohiyati.................................................................................... ……50**
2.3. Psixoanaliz ta’limoti va ijtimoiy psixologiya............................................58
2.4. Gumanizm nazariyasining ijtimoiy-psixologik talqini................................61
2.5. Kognitivi faoliyatning ijtimoiy-psixologik jihatlari.....................................63
2.6. Sotsial bilish psixologiyasida kognitiv yondoshuvlar..................................68
**3-bob. Ijtimoiy tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari**..............................71
3.1. Ijtimoiy psixologik tadqiqodlar metodologiyasi..................... ……………71
3.2. Ijtimoiy-psixologik tadqiqot ma’lumotlarining ishonchliligi........................................................................... ……..72
3.3. Sotsial psixologiyaning asosiy metodlari...................................................75
**4-bob. Ijtimoiy psixologiyada shaxs muammosi**.......................................... 87
4.1.Shaxs - ijtimoiy munosabatlarning, ijtimoiy hayotning ko‘p qirrali va murakkab mahsuli sifatida..........................................................89
4.2.Shaxsning ijtimoiy xulqi......................................................... …………..96
4.3.Ijtimoiy ustanovkalar haqida tushuncha.....................................................101
4.4.Shaxs toifalari va ularning ijtimoiy-psixologik xarakteristikasi.........................................................................................106
**5-bob. Men” konsepsiyasi va uning shakllanishi**...........................................117
5.1.“Men” konsepsiyasi haqida tushuncha.......................................................117
*5.2.Shaxsning psixoanalitik nazariyasi bo‘yicha “Men” talqini*.......................122
5.2. ”Men” Obrazi orqali shaxsning o‘z-o‘zini baholashi.................................125

5.3. Ijtimoiy “Men”ning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar........................................................................................................128
**6-bob. Ijtimoiylashuvning ijtimoiy-psixologik tomoni va shaxs rivojlanishi**.................................................................. …………………132
6.1.Psixologiyada ijtimoiylashuv tushunchasi..............................................133
6.2. Ijtimoiylashuv borasidagi nazariyalar.....................................................139
6.3.Shaxs rivojlanishi va uning psixologik qonuniyatlari...............................154
**7-bob. Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari**................................. ………..161
7.1.Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari haqida umumiy tushuncha...................162
7.2.Ijtimoiy ustanovka muammosining Rossiya psixologiyasida o‘rganilishi........................................................................................... 167
7.3. Ustanovkalarning to‘rt bosqichli tizimi...................................................169
7.4.Ustanovkaning shaxs xulq-atvorida namoyon bo‘lishi............................. 171
**8-bob. Shaxslararo munosabatlarda shaxs agressivligi**..............................178
8.1. Shaxslararo munosabatlar va ularning kechishi.......................................179
8.2. Shaxslararo munosabatlarda shaxs agressivligi muammosi.....................195
8.3. Agressiya tushunchasining psixologik tavsifi..........................................217
8.4. Bolalar va o‘smirlarda agressiv xulq-atvorning ifodalanishi…………… 222
**9-bob. Muloqot ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning ifodasi sifatida**................................................................................................ 226
9.1.Muloqot va shaxslararo munosabatlar ijtimoiy psixologik
muammo sifatida..........................................................................................227
9.2. Muloqotning shakllari va bosqichlari......................................................230
9.3. Muloqotdagi psixologik ta’sir.................................................................239
9.4. Muloqotning psixologik tizimi va vazifalari............................................243
**10-bob. Katta ijtimoiy guruhlar psixologiyasi**............................................248
10.1. Psixologiyada ijtimoiy guruhlar muammosi.......................................... 249
10.2. Guruhlar o‘lchamlari va tizimi............................................................. .252
10.3. Katta ijtimoiy guruhlar psixologiyasi.................................. …………258
10.4. Katta guruh a’zosidagi “Men” obrazi va o‘z-o‘zini baholash................ 264
10.5.Norasmiy guruhlar va ularning ijtimoiy psixologik
tavsifi.......................................................................................................... 267
**11-bob. Kichik guruhlar psixologiyasi.**.......................................................271
11.1. Ijtimoiy psixologiyada kichik guruh muammosi....................................272
11.2. Kichik guruhlar klassifikatsiyasi...........................................................275
11.3. Kichik guruhlardagi dinamik jarayonlar............................................. ..278
11.4. Ta’sirga beriluvchanlik: konformizm – nonkonformizm........................................................................................283
**12-bob. Boshqaruv psixologiyasi**................................................................289
12.1.Boshqaruv fanining rivojlanish tarixi...................................................291
12.2.Boshqaruv psixologiyasi fanining predmeti, vazifalari va metodlari.....................................................................................................294
12.3.Boshqaruv va menejmentning umumiy xususiyatlari........................... 299
12.4.Boshqaruv faoliyatining psixologik jihatlari.........................................306

12.5.Liderlik va superliderlik fenomeni.................................................... 311
12.6.Rahbar xislatlari va boshqaruv uslublari..............................................319
12.7. Qaror qabul qilish jarayonining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.........................................................................................329
**13-bob. Konfliktologiyaning predmeti, vazifalari va metodlari**.................................................................................... .335
13.1.Konfliktologiyaning rivojlanish tarixi.................................. ……..336
13.2.Konfliktologiyaning predmeti........................................................ 343
13.3.Konfliktning funksiyalari............................................................... 347
**14-bob. Konfliktlarning umumiy nazariyalari......................................352**
14.1. **Konfliktlarning umumiy nazariyalari......................................... 353**
**14.2. Konfliktlarning turlari................................................................359**
14.3.Konflikt tushunchasining psixologik mohiyati..................................366
*14.4.*Konfliktning sabablari va motivatsiyasi ..........................................369
**15-bob. Shaxslararo konfliktlar**..........................................................377
15.1.Konfliktlar inson hayotining ajralmas qismi sifatida.........................................................................................378
15.2. Shaxslararo konfliktlar...................................................................379
15.3.Shaxslararo konflikt natijasida stressning yuzaga kelishi.................................................................................... ..384
15.4. Stressni oldini olish va uni bartaraf etish usullari............................ 390
**16-bob. Ijtimoiy tizimning turli sohalarida uchraydigan konfliktlar**.................................................................................... 397
16.1.Ijtimoiy konfliktlar...........................................................................398
16.2. Oiladagi shaxslararo konfliktlar va ularni hal qilish usullari.........................................................................................402
16.3.Turli tashkilotlardagi konfliktlar......................................................405
16.4. Guruhlararo konfliktlar..................................................................408
16.5. Milliy-etnik konfliktlar...................................................................410
16.6. Siyosiy konfliktlar...........................................................................414
**17-bob. Konfliktlarning yuzaga kelishi va ularni hal etish**.................................................................................... ... 422
17.1. Konfliktlarning vujudga kelish sabablari........................................422
**17.2. Shaxsdagi ichki qarama-qarshilik va konflikt.............................426**
*17.3.* Pedagogik konfliktlar va ularning kelib chiqish sabablari va konfliktogenlar.....................................................................................428
17.4. Pedagogik konfliktlarning oldini olish va uni hal qilish..................434
**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**.......................................... ... ....436
**Glossariy**...............................................................................................440